

**SHAYBONIYLAR DAVLATINING HINDISTON BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI**

**Xayitova Xanifaxon Ilyosbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti “Tarix” yo‘nalishi 202-guruh talabasi

**Valiyeva Zuhraxon No‘monjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti “Tarix” yo‘nalishi 202-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVI asrda Buxoro xonligini boshqargan Shayboniylar davlatining Hindiston davlatidagi Boburiylar sulolasi bilan olib borgan siyosiy, iqtisodiy diplomatik aloqalari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Diplomatik, karvon, sulola, hukmdor, savdogar, eksport, xarita, xazina, tovar, hunarmand.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются политические, экономические дипломатические отношения государства шайбанидов, правившего Бухарским ханством в XVI веке, с династией Бабуридов в Индийском государстве.

**Ключевые слова:** Дипломатический, караван, династия, правитель, торговец, экспорт, карта, сокровище, товар, ремесленник.

**Annotation:** This article highlights the political, economic diplomatic relations that the Shaibani state, which ruled the Khanate of Bukhura in the 16th century, had with the Baburi dynasty in the Indian state.

**Keywords:** Diplomatic, caravan, dynasty, ruler, merchant, export, map, treasure, commodity, craftsman.

Tarixdan bizga ma‘lumki u yoki bu davlat har bir vaqtda rivojlanish davrida tashqi diplomatik aloqalar va savdo aloqalarisiz rivojlana olmagan. Bir so‘z bilan aytganda har qanday davlat ham o‘z qobig‘iga o‘ralib taraqqiy etmagan.

Shu o‘rinda bunga istisno ravishda Buxoro xonligidagi Shayboniylar sulolasi hukumdorlari tomonidan bir qancha savdo va diplomatik munosabatlari amalga oshirilgan. Movarounnahrda Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelgan yillarda va ular hukumronlik yillari(1501-1601)da qo‘shni mamlakatlar bilan elchilik, savdo tijorat ishlarini olib borganlar. Xonlikning tashqi savdoni tashkil etishda elchilarning xizmati katta bo‘lgan, chunki diplomatik aloqalarning yaqinligi savdo tijoratining rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Shayboniylar sulolasining hukmdor vakillari ham bir qancha qo‘shni davlatlar bilan tashqi savdoni tashkil etish tadbirlarini amalga oshirgan. Chunonchi Rossiya, Hindiston, Yorkent xonligi, qisman Usmonli turklar bilan savdo sotiq ishlarini olib borgan. Buxoro xonligining boshqa qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy (savdo) va siyosiy (elchilik) munosabatlarda bo‘lganligiga tarix guvohdir. Bu mamlakatlardan biri Hindistondir.

Tarixdan ma'lumki Hindistondagi Boburiylar imperiyasi (1526-1858) o'z davrining buyuk davlatlaridan biri bo'lgan. Ushbu sulolaga Amir Temur avlodidan bo'lgan, Bobur Mirzo 1526-yil 26-aprelda Dehli shahrini egallab, ushbu sulolaga asos solidi. Bobur davrida mamalakatda ilm-fan va madaniyat rivoj topadi. Bobur vafotidan so'ng bir muddat siyosiy tarqoqlik yuzaga kelgan bo'lsada, Akbarshoh bobosi kabi 13 yoshida davlatni o'z nazoratiga olib, u xuddi Bobur Mirzo singari iqtidorli siyosatchi bo'lib shakllandi. U markazlashgan davlatga asos sola oldi va Hindiston yarim orolini birlashtirdi, barqaror siyosiy mustaqil davlatga asos soldi. Markaziy Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi siyosiy aloqalar XV–XVII asrlardan e'tiboran diplomatik munosabatlarga asoslanadi. Hindistonlik tarixchi olim Ramech Chandra Varma o'zining "Akbar and Abdulla Khan" ("Akbar va Abdullaxon")<sup>1</sup>. asarida Turkiston bilan Hindiston o'rtasidagi munosabatlarni Akbarshoh davrida rivojlanish cho'qqisiga chiqqanini, Abdullaxon elchisi Oltamish Akbarshoh huzuriga kelganini va shu elchi orqali Akbarshoh Abdullaxon bilan do'stlik munosabatini o'rnatishga rozi ekanini bildiradi.

Hindiston va Markaziy Osiyo xalqlari asrlar davomida bir-birlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yidilar. Buning asosini Markaziy Osiyoning juda qulay geografik mavqega ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo orqali Sharq bilan G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq, jumladan, Markaziy Osiyo bilan Hindiston o'rtasida savdo aloqalari keng ko'lamda rivoj topdi.

XVI asr ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo va Hindistonda nisbatan kuchli markazlashgan davlatlar vujudga keldi. Boburiy Akbarshoh (1556–1605) taxtga chiqishi bilan deyarli bir vaqtda Buxorodagi hokimiyat Shayboniylar sulolasining so'nggi hukmdori Abdullaxon (1557–1598) qo'lga o'tdi. Akbarshoh davrida Boburiylar imperiyasi shimolda Tibet chegaralaridan tortib, janubda Todavari daryosi, g'arbda Gujoratdan to sharqda Bengal ko'rfazigacha yoyildi. Abdullaxon podsholigi vaqtida Buxoro xonligi ham katta hududni Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Xurosongacha bo'lgan yerlarni birlashtirib, harbiy-siyosiy jihatdan kuchli davlatga aylandi. Abdullaxon va Akbarshoh taxtni egallaganlaridan keyin o'z davlatlarini mustahkamlashga, mustaqil va yarim mustaqil xon va knyazliklarni bo'ysundirishga, yangidan-yangi o'lkalarni bosib olishga kirishdilar. Abdullaxon qattiq kurash natijasida Balx va Hiroti (1573), Shahrisabz, Qarshi va Hisorni (1574), shu yillari Akbar Malva, Gondvan, Chitor va Gujarotni zabt etdi. O'sha davrda ikkala davlat o'rtasida bir qator diplomatik almashinuvlar bo'lib o'tdi. Masalan, Abdullaxon 1572-73, 1577-78 va 1586-yillarda Hindistonga elchilar yubordi<sup>2</sup>. Shu asnodan Buxoro xoni Hindistonga obro'li amaldorlardan Mir Quraysh rahbarligida elchilar jo'natdi. U o'zi bilan sovg'a sifatida bir qancha nafis mollarni olib borgan edi. Elchilarning asosiy vazifasi Badaxshon Buxoroga qo'shib olingandan so'ng Akbarshohni Buxoro xonligiga munosabatini bilib olish bo'lgan. Akbarshoh Mir Quraysh boshliq elchilarni uzoq vaqt qabul qilmaydi, tarixchi olimlarning ta'riflashlaricha, Akbarshoh Kashmirni o'z davlatiga qo'shib olgandan so'ng elchilarni qabul qilmoqchi edi.

Shunday qilib, Akbarshoh Buxoro xonligi elchilarini 1586-yili 14-mart kunida qabul qiladi. Akbarshoh hukmronligining 30 yilligi (ya'ni 1586-yil) da Hindistonning O'rta Osiyodagi rasmiy kishisi Muhammad Hakim Hindistonga Mirzo Shohruh va Mirzo Sulaymon boshliq elchilarni yuboradi. 1587-yilda esa Buxorodan Akbarshoh saroyiga Mir Quraysh boshliq rasmiy elchilar yuboriladi. Elchilar Hindiston chegarasiga yetib kelganlarida

<sup>1</sup> Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdulla Khan. "Islamic Culture", Vol. XXI, №2, 1947, Hyderabad, - P.330

<sup>2</sup> Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. Фан. Тош., 1985. – С.53

chegara ma'murlari ularni samimiy kutib oladi. U yerdan elchilar Hind qurolli qismlari himoyasida Dehliga yetib keldilar. Do'stlik safari bilan Hindistonga kelgan Buxorolik elchilar Dehlida bir qancha oy turib, Akbarshoh tomonidan Abdullaxon saroyiga tayinlangan Hakim Humom boshliq hind elchilari bilan o'z vatanlariga qaytadilar. Hind elchilari Akbarshohning Abdullaxon nomiga yozgan xatini va bir lak (yuz ming) rupiy tanga va boshqa qimmatbaho zebu ziynatlardan iborat tuhfalarni olib keldilar. Akbarshoh Abdullaxonga yozgan xatida Eron shohi Abbosga qarshi birga kurashish kerakligi, o'z mamlakatlari orasida do'stlik munosabatlarini o'rnatish zarurligi to'g'risida yozadi. Hind elchilarini Abdullaxon hind odati bo'yicha qabul qiladi. Elchilar Buxoroda ikki yilga yaqin bo'ladilar, so'ngra katta tuhfa va tortiqlar bilan Hindistonga qaytib ketadilar. 1590-yili Mavlono Husayn boshliq Abdullaxonning yangi elchisi ham Akbar huzuriga safar bilan tashrif buyurgan. 1596-yili Xoji Ashraf Naqshband va Sulton Husayn Lakxnav boshliq Akbarshoh elchilari Buxoro tomon yo'lga chiqadilar. Elchilar Abdullaxonga Akbarshohning katta sovg'a-salomlari bilan o'zaro do'stlikni mustahkamlashni ta'kidlovchi maktub ham olib kelgan edi. Akbarshoh elchilari 1597-yil 9-sentabrda Buxoroga yetib keladilar. Abdullaxon ularni katta izzat-ikrom bilan kutib oladi. Bu elchilik munosabatlarida Akbarshoh Eron masalasidagi fikrini bildiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki O'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to'plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun XX asrning oxiriga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekiston tarixini, xususan o'zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bois ham, so'nggi yillarda O'zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o'rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi muhim bo'lib bormoqda. Ta'kidlash joizki, o'zbek xonliklaridan biri bo'lgan Buxoro xonligi – O'rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalqaro munosabatlarida katta iz qoldirgan davlat bo'lib, uning har bir hukmdori yuritgan ichki va tashqi siyosat hamda uning oqibatlarini o'rganish alohida ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston diplomatiyasi tarixidan, tarixiy ocherklar va lavhalar. – T, 2003. –B.105.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq. 2000. –244.
3. Abdurazzoq Samarqandiy."Hindiston safarnomasi". Kirish, tarjima va izohlar muallifi O'rinboev A. T., Fan, 1980. –B.120.
4. Ramesh Chandra Varma. Akbar and Abdulla Khan. "Islamic Culture", Vol. XXI, №2, 1947, Hyderabad, -P.330
5. 5 Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVII вв. Фан. Тош., 1985. –С.53